



ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARI

Shukurlayeva Nafisa

Qoraqalpoq Davlat universiteti O'zbek
filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Tajibayeva L. F

Mumtoz adabiyot an'analari va
yangi o'zbek she'riyati
Qoraqalpoq davlat universiteti

Rezyume: Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatining shakllanishida mumtoz adabiyot an'alarining ta'siri va mumtoz adabiyotdagi an'anaviy obrazlarning ijtimoiy mohiyat kasb etishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Mumtoz, an'ana, ma'rifat, jadid, obraz, lirika, ijtimoiy, Oy, quyosh, yulduz.

Резюме: В данной статье исследуется влияние классических литературных традиций на формирование новой узбекской поэзии и обретение социальной сущности традиционных образов в классической литературе.

Ключевые слова: Классика, традиция, просвещение, модерн, образ, лирика, социальное, луна, солнце, звезда.

Summary: In this article, the influence of classical literary traditions on the formation of new Uzbek poetry and the acquisition of social essence of traditional images in classical literature are studied.



Key words: Classic, tradition, enlightenment, modern, image, lyric, social, moon, sun, star.

Annotaciya: Bul maqalada ja'na o'zbek poeziyasini' qaliplesiwinde klassikalıq a'debiyat dasturlerini' tasiri ham klassikalıq a'debiyatta'gi dasturiy obrazlardi' sociallıq ahmiyetke ie ekenligi uyrenilgen.

Kalit so'zler: Klassikalıq, dastur, agartıwshılıq, jadid, obraz, lirika, sociallıq, ay, quyash, juldız.

Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyoti namoyandalari hamda jadid shoir-u adiblari Alisher Navoiy ijodiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ldi. Buyuk shoir asarlarini, ulardagi obrazlar olamini teran o'rgandi. Shuning barobarida, navoiyona obrazlarni yangiladi. "Chig'atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg'an xizmati juda ulug'dir, – deb yozadi Cho'lpon. – Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir. Ba'zi bir kishilar Navoiydan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddaroq yozg'anlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko'tarmak bilan narigini bir qadar tubanlashtirmoqchi bo'lsalar ham, Navoiy o'zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqeini olg'andir. Usmonli adabiyotining eng ulug' vakili bo'lg'an Fuzuliyini mashhur usmonli yozg'uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo'yib ko'rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o'zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o'ziga yarasha joy olg'anini ko'rsatadir"[1,20]. Bu fikrlar yangi o'zbek she'riyati vakillari ular mumtoz adabiyotdagi obrazlardan tamomila yangi maqsadlarni ifodalashda foydalangani isbotidir.

Oy, quyosh kabi an'anaviy obrazlar mumtoz she'riyatda o'ziga xos poetik ma'no ifodalangani ma'lum. Jumladan, "G'aroyib us-sig'ar" devonida hazrat Alisher Navoiy mana bunday yozadi:



Boqqach quyosh ruxsorig'a andin qilurmen ko'z yoshi

Kim, ul musofir oyima husn ichra bas monand erur.

Quyoshga tik qarab bo'lmaydi. Agar qaralsa, uning zarrin nurlari ta'siridan ko'z yoshlanadi. Ana shu hayotiy hodisani tamsil etgan buyuk shoir buning sababini quyoshning musofir oyga – safardagi yorga o'xshash ekani bilan izohlaydi. Mumtoz she'riyatdagi husni ta'lil san'atining betakror namunasi bo'lgan ushbu baytda quyosh – mahbubi haqiqiy, oy – majoziy ma'shuqa timsolini ifoda etib kelgan.

“Navodir ush-shabob”ning 205-g'azalida yulduz obrazi mana bu tarzda ohorli ifodalangan:

Bas ettim ashkfishonlig' chu zohir etting yuz,

Nechukki mehr ko'ringach, nihon bo'lur yulduz.

Ulug' shoir baytda: yor yuzini ko'rsatganda, ko'z yoshlarim sochildi, bu xuddi mehr, ya'ni quyosh ko'ringach, yulduzlarning nihon bo'lishiga o'xshaydi, degan fikrni go'zal badiiy tasvir orqali ifodalagan. Ushbu baytda yor yuzi quyoshga, oshiq ko'z yoshlari esa yulduzga tashbeh etilgan.

Oy, quyosh, yulduz obrazlari mumtoz adabiyotda ana shunday poetik mazmunni ifodalab kelgan. Yangi zamon she'riyatida bu obrazlarga ijtimoiy ma'nolar yuklana boshladi. Obrazlarning ijtimoiy ma'no ifodalashi adabiyotning ijtimoiyligi asnosida ramziyligini ham kuchaytirdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu jarayon adabiyotning badiiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Yangi o'zbek she'riyati o'zining badiiyati yuqoriligi, tafakkur kashfiyotining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu holatni yangi o'zbek adabiyotidagi har bir shoir ijodida kuzatish mumkin. Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyotining zabardast vakillaridan bo'lgan Furqat ijodi ham obrazlarning mazmunan yangilanish xususiyati bilan xarakterlanadi. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida mumtoz she'riyatimizdagi gul va bulbul obrazlari eng ko'p murojaat qilinadigan obrazlardan biridir. Bu obrazlar poetik tabiati yangilanishi Furqat lirikasidan boshlangan deyilsa, mubolag'a



bo‘lmas. “Bo‘ldi” radifli muxammasining mana bu satrlarida ushbu an‘anaviy obrazlar ijtimoiy ma‘no kasb etgani buni tasdiqlaydi:

Bahor ayyomi o‘tti, na gulu sarvu suman qoldi –
Ki, bulbul birla qumri o‘rniga zog‘u zag‘an qoldi,
Na jomi marg ichmay lolai xunin, kafan qoldi,
Chamanlardin nishon hech qolmadi, illo tikan qoldi,
Zimistoni ajalni bodidin bori xazon bo‘ldi.

Bu o‘rinda she‘r to‘laligicha obrazlar ramziyligiga asosan shakllangan. “Bahor ayyomi o‘tti” ifodasidayoq to‘liq ijtimoiy mazmun ifodalanadi. “Bahor ayyomi” aslida xalqning ozod va hur yashagan baxtli onlaridir. Undan keyingi “...na gulu sarvu suman qoldi” obrazli tasviri orqali ana shu saodatli kunlar o‘tib bo‘lgani, millatning boshiga kulfatlar yog‘ilgani talqin etilmoqda. Ko‘rinib turibdiki, bahor ham bu o‘rinda yangi ijtimoiy mazmunga ega obrazlardan biridir. SHoir ijodi bo‘yicha ahamiyatli tadqiqotlar olib borgan professor Nurboy Jabborov talqiniga ko‘ra, bu o‘rinda: “Bahor – taraqqiyot ramzi. Shoirning yozishicha, u o‘tib bo‘lgan. SHuning uchun ham bulbul birla qumri o‘rnini zog‘u zag‘an egallagan. Bulbul birla qumri obrazlari milliy davlatchilikni ifoda etsa, zog‘u zag‘an –mustamlakachilar obrazi. “Chamanlardin nishon hech qolmadi, illo tikan qoldi” satri orqali ijodkor milliy davlatchilik o‘rnini Rus mustamlakasi zabt etganiga ishora qiladi. Ajal zimistoni – istibdod timsoli. U bor mavjudlikni xazonga aylantirgan. Binobarin, istibdod bois Vatan va millat fojiaga yuz tutgan, milliy an‘analar toptalgan, elning huquqi, erki poymol etilgan”[2,28].

Furqat lirikasida asos solingan ushbu obrazlar yangilanishi jadid she‘riyatida yanada takomilga etkazildi. Abdulla Avloniy she‘riyatida bu hol, ayniqsa, yaqqol kuzatiladi. Shoirning “Ta‘rifi gul” she‘ri, shu jihatdan, o‘ziga xos ekani bilan qimmatlidir:

Xor alindan bag‘ri qon o‘lmish, bo‘yanmish qona gul,
G‘uncha bag‘rin chok etub, afg‘on qilur afsona gul.



Mumtoz she'riyatda xor (tikan), odatda, raqib obrazi ramzi bo'lib keladi. Ushbu baytda esa ijtimoiy ma'noda qo'llanib, mustamlakachilar mazmunini ifodalagan. Garchi an'anaviy aruzda, ramali musammani solim (taqti'si: foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan bo'lsa ham, obraz mohiyati yangilangani jihatidan qimmatlidir. Mana bu baytda ham "zolim tikonning yorasi" haqida so'z ketadi.

Yuzdagi xoli emas, zolim tikonning yorasi,

Kecha-kunduz zaxmi g'am birlan butun o'rtona gul.

Bu o'rinda tikon – gul (yuqoridagi baytda xor – gul) tazodi, gul, g'uncha obrazlari hosil qilgan tanosub, "g'uncha bag'ri", "zaxmi g'am" istioralari, afsona, zolim sifatlovchilari, yuzdagi xolning zolim tikonning yorasiga o'xshatilishi – tashbih kabilar g'azalda mumtoz badiiy san'atlardan yangicha ijtimoiy ma'noni ifodalashda mahorat bilan foydalanilganini ko'rsatadi. Quyidagi baytda ham ushbu mazmun izchil davom ettirilgani kuzatiladi:

Subhidamda yuzlarindan mavj uran shabnam emas,

Xor zulmindan to'kar ko'z yoshini durdona gul.

Tashbehtarlar o'zgarishi ijtimoiy mohiyatni kuchaytirish barobarida g'azal badiiyatini ham yuksaltirgani ahamiyatlidir. Bu esa, ijtimoiylikni badiiyatga zid qo'yish to'g'ri emasligi, she'rning poetik mukammalligi, birinchi navbatda, ijodkorning iste'dodiga bog'liq ekani haqidagi xulosaga olib keladi. Abdulla Avloniy deyarli har bir baytni tikan va gul ziddiyati asosiga qurgani g'azalning teran mantiq va yuksak badiiy mantiq asosiga qurilganidan dalolat beradi. Mana bu baytlar tahlili ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Gar sabo tebratsa gulni, xush isi nevchun chiqar,

Bag'riga botgan tikanlardan kelur afg'ona gul.

Naylasun bechora gul botmish vujudiga tikan,

Zaxmiga marham uchun yafrog'iga chulg'ona gul.



Avvalgi baytda sabo tebratgan guldan xush is chiqishi bag‘riga botgan tikanlardan kelgan afg‘onga bog‘lanishi, keyingisida gulning yaprog‘iga chulg‘anishi vujudiga botgan tikanlar bois ekani bilan izohlanishi – har ikki baytda san‘atkorona qo‘llangan husni ta’lil istibdod siyosati bois Vatan va millat boshiga tushgan kulfat san‘atkorona ifodalangani Avloniyning mazkur obrazlar mohiyatini tubdan yangilaganini ko‘rsatadi. Mazkur baytlarda, bundan tashqari, tazod (gul – tikan), tanosib (gul, yaproq), sifatlovchi-sifatlanmish munosabati (xush isi, bechora gul) singari badiiy san‘atlar ham mahorat bilan qo‘llangan.

Ushbu she’rni tahlil qilar ekan, jadidshunos Begali Qosimov mana bunday xulosa chiqaradi: “Mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri ishlanib kelgan gul, bulbul, yor, ag‘yor, may, charx (dunyo) kabi obrazlar Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etadi. Beixtiyor xor (tikan) mustamlakachi istibdodini, bag‘ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi”[3,278].

Ushbu misollar tahlilining o‘ziyoq yangi o‘zbek she’riyatidagi poetik obrazlar takomilida mumtoz adabiy an‘analar o‘ziga xos badiiy-estetik omil vazifasini o‘tagani, bu davr she’riyatida obrazlar mumtoz obrazlar negizida shakllangani isbotidir.

Mavjud poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yo‘naltirilishi. Yangi o‘zbek she’riyati janrlar takomilida ham mumtoz adabiyot xazinasiga tayandi. Endi ijodkorlar mumtoz adabiy janrlarga ham davr talabidan kelib chiqqan holda Vatan va millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli voqelik mohiyatni singdira boshladi. Bu hol dastlab Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar singari shoirlar ijodida kuzatiladi. Jumladan, Ubaydulla Zavqiy “Ko‘z ochaylik” radifli muxammasida mana bunday yozadi:

Fursat g‘animat, ahhob, millatga ko‘z ochaylik!

Sa’y ila jonu dilda himmatga ko‘z ochaylik!

Dinu diyonat istab, g‘ayratga ko‘z ochaylik!

Haq amri farz birla sunnatga ko‘z ochaylik!



Umr o'tdi g'aflat ila ibratga ko'z ochaylik!

Avvalo, muxammas uchun tanlangan radifga diqqat qaratilsa, unda milliy uyg'onish adabiyotining asosiy mohiyati aks etgani kuzatiladi. Qofiya bo'lib kelgan millatga, himmatga, g'ayratga, sunnatga, ibratga so'zlari tashigan ijtimoiy mazmun bu she'rning mumtoz muxammaslardan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Demak, mumtoz she'riy janr o'zgacha ma'no kasb etyapti. Unda milliy uyg'onish, dinu diyonat va Haq amrini baland tutish g'oyasi betakror badiiy talqin etilgan.

Ushbu she'rni Furqatning yuqorida tahlil etilgan "Bo'ldi" radifli muxammasining mantiqiy davomi, deyish mumkin. Zavqiyshunos SHahlo Karimova shoir ijodidagi janrlar taraqqiyoti va o'zgarishini tadqiq etgan holda, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ko'z ochaylik" radifli muxammasiga e'tibor beraylik. Muxammas boshdan-oyoq targ'ibotchilik va da'vatkorlik ruhi bilan sug'orilgan. Zavqiyning an'anaviy yo'nalishda yaratilgan lirik asarlaridan farqli o'laroq davr ruhini ifodalovchi bu she'ri ijtimoiy mavzuda yozilgan. Shoir ijtimoiy hayotga befarq bo'lmagan. U yurtning vijdonli kishilari qatori xalq ahvoliga chin dildan kuyingan. "Qaro zulmat qa'riga botgan millat"ning ruhiga darmon bo'lish yo'lini izlagan va o'z tashvishli o'ylarini asarlariga singdirishga harakat qilgan"[4,131].

Bu kabi holatlarga yangi o'zbek she'riyatining ilk bosqichidayoq duch kelish mumkinligiga Komil Xorazmiyning qasidaları yorqin misoldir. Bilamizki, mumtoz adabiyotda qasida o'ziga xos adabiy-estetik qonuniyatlarga asoslangan mustaqil janrdir. Yangi o'zbek she'riyatida qasidalarining yaralishi an'ana va mazmuniy yangilanishi negizida kechdi. Masalan, Xorazmiy qasidalarida mumtoz adabiyotning aynan qasidaga xos bo'lgan nazariy asoslari to'liq aks etgani kuzatiladi:

Bahordin demagil bu sifat tarovatlar,
Qachon bu yilg'idek o'ldi hamisha bor bahor.
Chu sokin o'ldi zumurrad sarir uza guldek,
Jahonni ayladi sultoni nomdor bahor.



Shahi yagona Muhammad Rahim soniy deb,

Nigini davlat uza berdi ishtihor bahor.

Muallif bahorning betakrorligini, har doimgidan ham bu yil betakror go‘zallikka ega ekanini Feruzning taxtga chiqishi voqeasi bilan bog‘laydi va bu kabi ifoda uslubi aynan mumtoz adabiyot qasidachiligiga aynan muvofiq keladi. Biroq yangi o‘zbek she‘riyatida shunday qasidalar ham yaratildiki, ular mazmuniy novatorlikning yorqin ifodasidir. Masalan, Furqat qasidolari shaklan mumtoz adabiyot an‘analariga tayangan bo‘la ham, mazmunan o‘zida yangi o‘zbek she‘riyati xususiyatlarini to‘liq namoyon etadi. Uning oqpodshohga atab yozilgan qasidasi mumtoz adabiyotdagi qasidalardan mazmunan tamomila farqli xususiyatlarga ega. Qasidadagi:

Hukumat intizomin ko‘r: tajovuz aylab insondin,

Siyosat zarbatidin larzalar sheri jayon etti.

Sipohiy shersavlatdur, livosi ajdaho paykar,

Olib ko‘b shahrni, alqissa, tasxiri jahon etti –

kabi misralarning o‘ziyoq Furqat ijodida qasidachilik mohiyat jihatidan yangilanganini yaqqol ko‘rsatib beradi. Boisi, qasidachilik an‘anasiga ko‘ra hukmdor madh etilishi, uning sifatlari ulug‘lanishi lozim. Biroq yuqoridagi misralar bu an‘ananing tamoman ziddidir. Bosqinchilik siyosatiga ishora, insoniylik chegarasidan tajovuz qilish (tashqariga chiqish), ajdaho libosli sipohiy – bularning barchasi shoirning oqpodshoh va uning siyosatiga qarshi munosabatini yorqin va ta’sirli aks ettiradi. Qasidadagi: “Haqiqiy podshohekim, jahonni intizomi-chun, Majoziy podshohlarni jahong‘a hukmron etti” ifodasiyoq Furqatning qasidachilikni yangilay olganidan dalolat beradi. Bu qasida nafaqat mazmunan, qolaversa, tuzilishiga ko‘ra ham mumtoz adabiyotdagi ushbu janr namunalaridan farq qiladi. Bu haqida professor Nurboy Jabborov quyidagicha fikr bildiradi: “An‘anaga ko‘ra, qasidaga so‘zboshi yozilmaydi. Furqat esa asarni so‘zboshi-izoh bilan boshlaydi. Unda, jumladan, mana bunday satrlarni o‘qiymiz: “Zimistoni shabistonlarkim, siyohbaxtlar ro‘zgoridek qaro



va sohibi afkorlar andishasi yanglig‘ uzun va beintihodur. Bu laylatu-d-dajoda uyqu durrojlari ko‘zlar oshyonasidin ramida qilib, xayol nasoyimi har tarafg‘a varzida qilur erdi...”. “Oqpodshoh”ga bag‘ishlangan qasidaning debochasi chuqur iztirob ifodasi bo‘lgan “Siyohbaxtlar ro‘zg‘oridek qop-qora, zimiston tun” tasviri bilan boshlanishi bejiz emas. Bu tasvir mazkur debocha davomida “jo‘shi bahori rashki gulistoni Eram” deya ta’riflangan Farg‘ona mamlakati, “bu roqimi tasvidotning asl shajarai vujudi... obu havosi obyorlig‘i birla tarbiyat topmish bo‘lg‘on” Xo‘qand gulshanining istibdod zulmatida qolganiga ochiq ishoradir. Aks holda podshoh madhiga bag‘ishlangan qasida bunday dard-alam, iztirob ifodasi bilan boshlanmagan bo‘lar edi”[5,132].

Furqat ijodi Navoiy an‘analariga ergashgani, o‘zida mumtoz adabiyotga cheksiz havas va intilishni aks ettirgani holda, novatorlikni namoyon etishi, tafakkurning beqiyos qirralarini akslantirishi va ijtimoiy faolligi bilan alohida ajralib turadi. Zero, yangi o‘zbek she‘riyatida “Furqat va uning zamondoshlari lirikasi mumtoz nazmiy an‘analardan yangi o‘zbek she‘riyatiga o‘tishda o‘ziga xos adabiy ko‘prik vazifasini o‘tadi, deyish mumkin. Ushbu adabiy-estetik omil jadid she‘riyati yuzaga kelishida muhim o‘rin tutdi”[5,131]. Qolaversa, Furqat ijodidagi munojot, g‘azal va musaddaslarda ham ayni an‘ana zamiridagi novatorlik yaqqol kuzatiladi. Uning munojotidagi:

Mayi ilmdin masti irfon etib,

Nasib etma jomi jaholat manga –

kabi misralaridayoq ma‘rifatparvarlik adabiyotining bosh g‘oya va maqsadi aks etadi. Bu kabi g‘oyalar nafaqat Furqat, qolaversa, yangi o‘zbek she‘riyatining boshqa ko‘plab ijodkorlari she‘riyatida ham davom etdi. Masalan, Avloniyning hamd va na‘t mazmunidagi she‘rlarida ayni xususiyat etakchilik qiladi. Ularda mumtoz adabiyotdagi usullar bir qadar saqlangani holda, g‘oya va mazmun o‘zgara boradi. Mumtoz adabiyotda hamd va na‘tlarda shoirning Allohga madhi, tavbasi kabi mazmun aks etsa, Avloniy o‘z hamd va na‘tlarida bir qadar dunyoviy masalalarni qalamga oldi. Jaholatga botgan millat holiga najot izladi, Alloh



taolodan ilm nuri bilan insonlar qalbini yoritishni so‘radi, yagona najot ilmda ekanligini, millatning ma’rifat vositasidagina taraqqiyga erishmog‘i mumkinligini ta’kidlagani holda, uning jaholat girdobida qolganidan iztirob chekdi:

Bu na zamonki, millati holi zabundir,
Bug‘zu adovat o‘rtada haddan fuzundur,
Har kas o‘zining nafsı uchun sarnigundur,
Jahl o‘tina yonib dilimiz la‘lgandur,
Ummat amalni tashladi, ko‘zi yoshi xundur,
Hijron – biz, o‘zgarlar hama sarvati funundur,
Sizdin tarahhum istayur islom, yo habib,
Boq, ummatingizni holina bemor ham g‘arib.

Ko‘rinib turganidek, na’tda ijtimoiy mazmun yetakchilik qilmoqda. Bu holat mumtoz adabiyot uchun xos bo‘lgan hamd va na’tlarning mohiyati, tabiati davr talabiga muvofiq o‘zgarishga uchraganidan dalolat beradi. Janr mohiyatidagi ushbu o‘zgarish, albatta, muallifning dunyoqarashi va maqsadlari bilan ham chambarchas bog‘liq jarayondir. Bu kabi usullar, an’ana negizida yangilikning kashf etilishi yangi o‘zbek adabiyoti uchun xos xususiyatdir. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, yangi o‘zbek she’riyati janrlari yangilanishi va poetik takomilida mumtoz adabiyotning o‘rni beqiyosdir.



ADABIYOTLAR:

1. Чўлпон. 500 йил. /Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Т.: “Akademnashr”, 2016, 20-бет
2. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. док-ри.... дисс. – Тошкент, 2004. – Б 28.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 278
4. Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеъриятида поэтик мазмун ва шаклий изланишлар. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD).... дисс...Т. 2018. Б.131.
5. Жабборов Н. Алишер Навоийнинг увайсий шогирди. //Алишер Навоий. Халқаро журнал. 2022, 2-сон. -Б.132.